



## BOSHQARUV VA RAHBARLIK USLUBLARI. FARMATSEVTIKA TASHKILOTIDA KADRLAR BOSHQARUVI ASOSLARI

*Davronova Nafisa Otabek qizi*

*Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti talabasi*

*Ilmiy rahbar: Narzullaeva Mexrangiz Azizxonovna*

*Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti assistenti*

**Annotatsiya:** Farmatsevtika tashkilotlarining muvaffaqiyati va uzluksiz rivojlanishi ko‘p jihatdan samarali boshqaruv va zamonaviy rahbarlik uslublariga bevosita bog‘liqdir. Farmatsevtika sohasining o‘ziga xos xususiyatlari tufayli bu sohaga oid tashkilotlarda boshqaruv va rahbarlikning alohida jihatlari mavjud bo‘lib, ular zamon talablari va global bozor qonuniyatlariga mos bo‘lishini taqozo etadi. Farmatsevtika tashkilotlarida boshqaruv va rahbarlik uslublarining to‘g‘ri tanlanishi nafaqat sifatli mahsulot ishlab chiqarish, balki tibbiyot muassasalari va aholining ehtiyojini to‘liq qondirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so‘zlar:** farmatsevtika tashkiloti, boshqaruv, rahbarlik, boshqaruv uslublari, kadrlar boshqaruvi, motivatsiya, samaradorlik, innovatsiya, inson resurslari, kompetensiyalar.

Boshqaruv deganda, tashkilot maqsadlariga erishishda zamin bo‘luvchi barcha jarayonlarni, ular ichida rejalashtirish, tashkil etish, muvofiqlashtirish, nazorat qilish va rag‘batlantirish kabi amaliy harakatlarni anglash mumkin. Rahbarlik esa, boshqaruv tizimida inson omilini ilgari surib, xodimlarning faoliyatini ma’lum bir yo‘nalishga yo‘naltirish, ularga motivatsiya berish, ularni rivojlantirish va jamoadagi muhitni kuchaytirish vazifalarini amalga oshiruvchi asosiy bosqichdir. Zamonaviy boshqaruvning asosiy uslublari quyidagilardan iborat: avtoritar uslub, demokratik uslub va liberal uslub. Avtoritar uslubda rahbar to‘liq vakolatga ega bo‘lib, qarorlarni mustaqil qabul qiladi va ijro etilishini bevosita nazorat qiladi.





muhit tashkil etish asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Kadrlar boshqaruvida kompetensiyalar yondashuvi, ya'ni har bir xodimning bilim, ko'nikma va qobiliyatini aniqlash va rivojlantirish muhim hisoblanadi. Zamonaviy talablarga binoan rahbar va boshqaruv xodimlari yuqori malakali, mas'uliyatli, o'z sohasini yaxshi biladigan bo'lishi lozim. Bu jihatlarni inobatga olgan holda, farmatsevtika tashkilotining har bir a'zosi faoliyatini tashkil etishda samarali boshqaruv uslublaridan foydalanilishi lozim. Zarur hollarda tashqi va ichki treninglar tashkil etilib, kadrlar bilim va ko'nikmalarini muntazam oshirib borish kerak [2].

Farmatsevtika sohasida boshqaruv va rahbarlikning yana bir muhim jihati – kommunikatsiyalarni samarali tashkil qilishdir. Rahbar va xodimlar orasidagi o'zaro ishonch, ochiq muloqot muhitining yaratilishi, qarorlarni to'g'ri va tez yetkazilishi, muammolarni birgalikda tahlil qilish va samarali hal qilish imkonini beradi. Ochiqlik va shaffoflik tamoyillarini to'liq joriy etish orqali, jamoadagi har bir a'zo o'zining tashkilotdagi roli va mas'uliyatini aniq biladi. Kadrlar boshqaruvi jarayonida motivatsiya va baholash tizimi alohida ahamiyatga ega. Farmatsevtika tashkilotida samarali rag'batlantirish tizimini joriy qilish uchun ish haqi va ijtimoiy imtiyozlar bilan bir qatorda ma'naviy rag'bat ham beriladi. Xususan, eng yaxshi ishchi yoki eng yaxshi bo'limni aniqlash, yil yakunlari bo'yicha tanlovlar o'tkazish, sertifikat va diplomlar bilan mukofotlash mumkin. Bu tizim xodimlarning doimiy rivojlanishga intilishlarini kuchaytiradi, tashkilot ichida raqobatbardoshlik va mehnat sifatini oshiradi. Farma-sektorda ixtisoslashgan mutaxassislarni jalb etish va ularning malakasini oshirish asosiy masalalardan biri sanaladi. Ishga qabul qilish jarayonida yuqori malakali, tajribali, o'z sohasini puxta egallagan xodimlarni tanlashga e'tibor qaratiladi. Shuningdek, doimiy ravishda ilmiy-amaliy seminar va treninglar tashkil etilib, xodimlarning kasbiy bilimlari va ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Muntazam ravishda amaliy mashg'ulotlar va treninglar o'tkazilishi bilan birga innovatsion yondashuvlardan foydalanish va xalqaro tajribalarni o'rganish samarali natijadorlikni oshiradi [4].



Boshqaruv tizimi samarali bo'lishi uchun yetakchi rahbarlardan tashqari, har bir bo'lim boshlig'i va o'rta bo'g'in rahbarlari ham to'g'ri boshqaruv uslubini egallashi lozim. Maxsus o'qituvlar va motivatsion treninglar tashkilot ish faoliyatini yanada boyitadi va mustahkamlash imkoniyatini beradi. Mahsulot sifatini oshirish, yangi bozorlarni zabt etish va innovatsion echimlarni tadbiq qilish uchun rahbar va har bir xodimning doimiy o'qib-o'rganishi tashkilot rivoji uchun muhim hisoblanadi. Farmatsevtika tashkilotidagi boshqaruv va rahbarlik uslublarini zamonaviy va milliy qadriyatlar asosida uyg'unlashtirish dolzarb hisoblanadi. Jamoa birligi, o'zaro hurmat, mehnatsevarlik va fidoyilik singari fazilatlarni keng joriy qilish tashkilotda sog'lom muhit barpo etishga yordam beradi. Kadrlar boshqaruvining har bir bosqichida ochiqlik, adolat va shaffoflik tamoyillarini keng tatbiq qilish zamonaviy boshqaruvning ajralmas bo'lagidir. Farma-sektorda inson resurslarini rivojlantirish, xodimlarning kasbiy va shaxsiy o'sishini rag'batlantirish, tashkilot maqsad va vazifalariga erishishda innovatsion tadqiqot va ishlanmalarni keng joriy qilish orqali yuqori natijalarga erishish mumkin. Bunda har bir rahbar o'zining bilim va tajribasini jamoadoshlariga o'rgatishi, ularga yetakchilik qilishi, professional muhit yaratishi va tashkilot oldiga qo'yilgan har bir maqsadga jamoa bo'lib harakat qilishga undashi zarur. Kadrlar boshqaruvi tizimining asosiy ustunligi—har bir xodimning iste'dodi va salohiyatini to'liq ochib berish, ularni tashkilot taraqqiyotiga safarbar qilish, faoliyatini doimo monitoring qilib borish va natijalarga erishishda barcha imkoniyatlardan foydalanishdan iboratdir. Farmatsevtika tashkilotida kadrlar siyosatining to'g'ri yo'lga qo'yilishi faoliyatning uzluksizligi, samaradorligi va barqarorligiga musbat ta'sir ko'rsatadi. So'nggi yillarda ommaviy axborot vositalarining kuchayishi, axborot texnologiyalarining taraqqiy etishi farmatsevtika tashkilotining rahbarlari va boshqaruv xodimlaridan yuqori malakani va doimiy o'z ustida ishlashni talab qilmoqda. Tashkilot rivojlanishida ilg'or texnologiyalar va zamonaviy boshqaruv yondashuvlarini muntazam joriy qilish, tezkor qarorlar qabul qilish va xodimlarning malakasini



oshirish strategik ahamiyat kasb etadi. Farmatsevtika tashkilotida zamonaviy boshqaruv tamoyillarini joriy qilishda ilg‘or tajribalar, milliy qadriyatlar va halqaro standartlarni uyg‘unlashtirish orqali yuqori samaradorlikka erishish mumkin. Kadrlar boshqaruvi nafaqat yangi xodimlarni jalb etish va tanlash, balki mavjud xodimlarning individual va jamoaviy salohiyatini to‘liq ochib berish, ularning innovatsiyalarga ochiqligini ta‘minlash va tashkilot manfaatlariga xizmat qiluvchi rivojlanish loyihalarini amalga oshirishdan iboratdir [5].

### **XULOSA**

Farmatsevtika tashkilotida boshqaruv va rahbarlik uslublari, kadrlar boshqaruvining zamonaviy asoslarini puxta o‘zlashtirish tashkilot taraqqiyoti va barqarorligini ta‘minlovchi muhim omillardan biridir. Boshqaruv jarayonida ilg‘or yondashuvlarni qo‘llash, xodimlarning salohiyatini to‘g‘ri yo‘naltirish, ularni doimo rag‘batlantirib borish va zamon talablari asosida raqobatbardoshlikni oshirish tashkilotning asosiy strategiyasiga aylanishi lozim. Farmatsevtika tashkilotida samarali boshqaruv mexanizmlarini ishlab chiqish, kadrlar siyosatini takomillashtirish, innovatsion texnologiyalar va xalqaro tajribalardan foydalanish soha taraqqiyotining kafolatli asosidir. Yaxshi tashkil etilgan boshqaruv tizimi va kompetent kadrlar jamiyat sog‘lig‘ini saqlash va mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. Kadrlar boshqaruvini zamonaviy tamoyillar asosida tashkil qilish natijasida, tashkilot faoliyati doimiy rivojlanadi va ichki bozor bilan bir qatorda xalqaro maydonlarda ham yetakchilik qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Djalilov A.T. “Farmatsevtika tashkilotlari boshqaruvi va iqtisodiyoti”, Toshkent: 2023.
2. Shukurov M., Turov O. “Tibbiyot muassasalari va farmatsevtika tashkilotlari boshqaruvi”, Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2022.



3. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining me‘yoriy hujjatlari, 2019-2024 yillar.
4. Robbins S.P. “Tashkilotlarning boshqaruvi”, Toshkent: 2021.
5. Mintzberg H. “The Nature of Managerial Work”, Prentice Hall, 2017.
6. O‘zbekiston Respublikasi “Farmatsevtika faoliyati to‘g‘risida” gi Qonuni, 2020.
7. Sirojiddinov S. “Inson resurslari boshqaruvi”, Toshkent: 2020.
8. Zhuraev G.M. “Rahbarlik va zamonaviy boshqaruv”, Toshkent: 2022.
9. Sobirzhonovna B. N. et al. THE ROLE OF ASSORTMENT AND MERCHANDISING TO INCREASE SALES IN PHARMACY ORGANIZATIONS //AMERICAN JOURNAL OF APPLIED MEDICAL SCIENCE. – 2025. – T. 3. – №. 1. – С. 120-128.
10. Sobirzhonovna B. N., Gayratovna A. H. STUDY OF THE INTERNAL PHARMACY CONTROL OF TREATMENT AND PREVENTION INSTITUTIONS AND IMPROVEMENT OF THE PROVISION OF MEDICINES AND PHARMACEUTICALS //AMERICAN JOURNAL OF APPLIED MEDICAL SCIENCE. – 2025. – T. 3. – №. 1. – С. 129-136.
11. Sobirzhonovna B. N., Azamatovna U. F. DEVELOPMENT OF METHODOLOGICAL APPROACHES TO ASSESSING THE COMPETITIVENESS OF PHARMACY ORGANIZATIONS //AMERICAN JOURNAL OF APPLIED MEDICAL SCIENCE. – 2025. – T. 3. – №. 1. – С. 112-119.
12. Sobirzhonovna B. N., Akbaraliyeva U. G. ANALYSIS OF WIDELY USED DRUGS AND THEIR BENEFITS IN THE TREATMENT OF BREAST CANCER IN SAMARQAND //AMERICAN JOURNAL OF APPLIED MEDICAL SCIENCE. – 2025. – T. 3. – №. 1. – С. 105-111.



13.Sobirzhanovna B. N. New Aspects of Pathology and Norms of Matrix Metalloproteinases //Web of Medicine: Journal of Medicine, Practice and Nursing. – 2024. – Т. 2. – №. 3. – С. 34-37.

14.Aziz K., Burxon E., Azizkhanovna N. M. STANDARDIZATION OF IMMUNOMODULATORS, ALLERGENS AND ALLERGOIDS //AMERICAN JOURNAL OF APPLIED MEDICAL SCIENCE. – 2025. – Т. 3. – №. 3. – С. 156-159.

15.Hilola H., Zilola M., Azizkhanovna N. M. LOZENGE DOSAGE FORMS //AMERICAN JOURNAL OF APPLIED MEDICAL SCIENCE. – 2025. – Т. 3. – №. 3. – С. 127-130.

16.Sevaraxon A., Azizbek M., Azizkhanovna N. M. PERISHABLE AND NON-PERISHABLE MEDICINES AND QUALITY CONTROL //AMERICAN JOURNAL OF APPLIED MEDICAL SCIENCE. – 2025. – Т. 3. – №. 3. – С. 123-126.

17.Feride B., Abdumannon E., Azizkhanovna N. M. STANDARDIZATION AND QUALITY CONTROL OF EYE DROP DOSAGE FORMS //AMERICAN JOURNAL OF APPLIED MEDICAL SCIENCE. – 2025. – Т. 3. – №. 3. – С. 119-120.

18.Jasurovich M. D., Azizkhanovna N. M. INTERESTING ANALYZES ABOUT RABBITS //AMERICAN JOURNAL OF APPLIED MEDICAL SCIENCE. – 2025. – Т. 3. – №. 1. – С. 367-372.

19.Umida D., Bobur S., Azizkhanovna N. M. THE ROLE OF MINERAL WATERS IN MODERN MEDICINE //AMERICAN JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY BULLETIN. – 2025. – Т. 3. – №. 2. – С. 139-145.



20. Mavsuma O S. A., O'tkir B. TOG'JAMBIL O'SIMLIGINING DORIVORLIK XUSUSIY TALARI // O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2025. – Т. 4. – №. 37. – С. 443-445.
21. Fayzullayevich D. S. et al. PHARMACOLOGICAL PROPERTIES OF LAGOXILUS // AMERICAN JOURNAL OF EDUCATION AND LEARNING. – 2025. – Т. 3. – №. 2. – С. 620-622.
22. G'ulom qizi Samarkand O. M. et al. MORPHOFUNCTIONAL CHANGES IN THE STOMACH UNDER THE INFLUENCE OF FOOD DYES (E-171, E-173) AND THEIR CORRECTION // International journal of advanced research in education, technology and management. – 2024. – Т. 3. – №. 5. – С. 194-199.
23. Bazarova N. et al. Determination of the relationship between the polymorphic genes of metalloproteinases MMP9 (A-8202G) RS11697325 and the level of cystatin c in children with chronic nephritic syndrome // BIO Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – Т. 121. – С. 03011.
24. Zafarovich B. B. et al. PASTILKA DORI SHAKLLARINING FARMATSEVTIK ANAMIYATI VA STANDARTLASHTIRISH JARAYONLARI // Лучшие интеллектуальные исследования. – 2025. – Т. 56. – №. 3. – С. 164-169.
25. Ибрагимов У. Н. ВЫБОР И ОБОСНОВАНИЕ КРИТЕРИЙ И УРОВНЕЙ ФОРМИРОВАНИЯ КАРТОГРАФИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ У СТУДЕНТОВ // Экономика и социум. – 2023. – №. 5-2 (108). – С. 687-694.
26. Ибрагимов У. И., Эшкобилова М. Э. ОЦЕНКА ИНТЕНСИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ГАСТРОЭНТЕРОЛОГИЧЕСКИХ ЛЕКАРСТВЕННЫХ ПРЕПАРАТОВ // Research Focus. – 2025. – Т. 4. – №. 1. – С. 235-238.



27. ФАРМАЦЕВТИКО-ЭКОНОМИЧЕСКИЙ  
(ФАРМАКОЭКОНОМИЧЕСКИЙ) АНАЛИЗ ЛЕКАРСТВЕННЫХ СРЕДСТВ,  
ПРИМЕНЯЕМЫХ В ФАРМАКОТЕРАПИИ ХРОНИЧЕСКОГО  
ПАНКРЕАТИТА В ГАСТРОЭНТЕРОЛОГИЧЕСКОЙ ПРАКТИКЕ

28. Qizi S. B. M., Azizxonovna N. M. FARMATSEVTIK  
TASHKILOTLARDA ETIKA VA DEONTOLOGIYA //PEDAGOGS  
INTERNATIONAL RESEARCH JOURNAL. – 2026. – Т. 98. – №. 1. – С. 156-  
169.